



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar-noyabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 518,7 mln. AQSH dollariga etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 121,1 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr 2024 y., mln. AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **1 518,7** (+21,1 %)

(2023- y.: **1 254,1**)



Saldo

2024- y.: **461,5** (2023- y.: **-15,7**)



Eksport

2024- y.: **990,1** (+59,9 %)

(2023- y.: **619,2**)




Import

2024- y.: **528,6** (-16,7 %)

(2023- y.: **634,9**)

TSA'dagi ulushi

34,8 %



65,2 %

TSAda eksport hajmi 990,1 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 59,9 % ga ko'paydi) va import hajmi 528,6 mln. AQSH dollariga (83,3% ni tashkil etdi) yetdi. Hisobot davrida 461,5 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.













NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Fransiya, Xitoy va Rossiyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.









Navoiy viloyati jahonning 76 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (45,2%), XXRda (14,3%), Rossiyada (12,3%), Qozog'istonda (4,5%) va Turkiyada (3,9%) qayd etilgan.











<p>Fransiya</p> <p>TSA – 686,4</p> <p>Eksport: 684,0 Import: 2,4</p> <p> 45,2 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 217,8</p> <p>Eksport: 7,0 Import: 210,8</p> <p> 14,3 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 186,7</p> <p>Eksport: 76,0 Import: 110,7</p> <p> 12,3 %</p>	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 69,1</p> <p>Eksport: 26,3 Import: 42,8</p> <p> 4,5 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 59,1</p> <p>Eksport: 29,3 Import: 29,8</p> <p> 3,9 %</p>
<p>Hindiston</p> <p>TSA – 51,4</p> <p>Eksport: 46,5 Import: 4,9</p> <p> 3,4 %</p>	<p>Daniya</p> <p>TSA – 25,2</p> <p>Eksport: 23,9 Import: 1,3</p> <p> 1,7 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 23,4</p> <p>Eksport: 0,3 Import: 23,1</p> <p> 1,5 %</p>	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 22,2</p> <p>Eksport: 22,1 Import: 0,1</p> <p> 1,5 %</p>	<p>Yaponiya</p> <p>TSA – 21,3</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 21,3</p> <p> 1,4 %</p>



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Fransiya	62,2	382,0	686,4
 <i>Eksport</i>	60,4	377,3	684,0
<i>Import</i>	1,8	4,7	2,4
XXR	225,1	178,7	217,8
 <i>Eksport</i>	66,7	13,8	7,0
<i>Import</i>	158,4	164,9	210,8
Rossiya	254,0	211,1	186,7
 <i>Eksport</i>	82,5	59,0	76,0
<i>Import</i>	171,5	152,1	110,7
Qozog'iston	90,3	65,1	69,1
 <i>Eksport</i>	21,3	17,3	26,3
<i>Import</i>	69,0	47,8	42,8
Turkiya	63,0	59,7	59,1
 <i>Eksport</i>	35,8	32,5	29,3
<i>Import</i>	27,2	27,2	29,8
Hindiston	16,9	51,3	51,4
 <i>Eksport</i>	-	40,2	46,5
<i>Import</i>	16,9	11,1	4,9
Daniya	0,1	14,3	25,2
 <i>Eksport</i>	-	13,3	23,9
<i>Import</i>	0,1	1,0	1,3
Germaniya	15,8	23,3	23,4
 <i>Eksport</i>	-	-	0,3
<i>Import</i>	15,8	23,3	23,1
Afg'oniston	10,1	21,1	22,2
 <i>Eksport</i>	10,1	21,1	22,1
<i>Import</i>	-	-	0,1
Yaponiya	25,2	42,8	21,3
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	25,2	42,8	21,3

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
AQSH	2,8	3,2	19,7
 <i>Eksport</i>	0,4	0,1	8,9
<i>Import</i>	2,4	3,1	10,8
Qirg'iz Respublikasi	27,4	12,2	14,9
 <i>Eksport</i>	24,9	9,5	13,7
<i>Import</i>	2,5	2,7	1,2
Eron	11,3	9,0	13,4
 <i>Eksport</i>	3,7	3,8	6,4
<i>Import</i>	7,6	5,2	7,0
Litva	17,8	23,6	10,7
 <i>Eksport</i>	11,6	8,4	7,6
<i>Import</i>	6,2	15,2	3,1
Turkmaniston	28,3	4,8	10,2
 <i>Eksport</i>	27,0	3,6	7,5
<i>Import</i>	1,3	1,2	2,7
Buyuk Britaniya	0,3	9,7	10,1
 <i>Eksport</i>	-	-	0,6
<i>Import</i>	0,3	9,7	9,5
Koreya Respublikasi	21,4	20,5	8,6
 <i>Eksport</i>	-	0,1	-
<i>Import</i>	21,4	20,4	8,6
Tojikiston	7,4	6,1	6,9
 <i>Eksport</i>	7,3	6,0	6,5
<i>Import</i>	0,1	0,1	0,4
Italiya	2,0	5,6	5,7
 <i>Eksport</i>	0,1	4,2	-
<i>Import</i>	1,9	1,4	5,7
Chexiya	1,9	5,5	5,0
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,9	5,5	5,0



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI *

(2024- yil yanvar-noyabr, ming AQSH doll.)




2024-yil yanvar-noyabr

2023-yil yanvar-noyabr

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 60,6 % ulush bilan 921 036,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri 0,2 % ulush bilan 3 338,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 19,7 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 97,8 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 28,6 % ga ko'paydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 80,3 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, 299,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 139,4 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 159,9 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



NAVOIY VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

Rossiya – 12,3



Qozog'iston – 4,5



Qirg'iz Respublikasi – 1,0



Turkmaniston – 0,7



Tojikiston – 0,5



Ukraina – 0,2



Belarus – 0,2




Armaniston – 0,2




Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (12,3 %), Qozog'iston (4,5 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (1,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.

NAVOIY VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)



 Navoiy viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 273,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 118,7 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 155,1 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Belarus) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 990,1 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 59,9 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr, ulushi % da)



*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	619,2	990,1	113,0	159,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	29,0	35,3	180,6	121,8	4,7	3,6
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	26,5	19,2	54,8	72,3	4,3	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	21,1	27,7	2,9 b.	131,7	3,4	2,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1	1,7	3,3 b.	145,3	0,2	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	430,4	753,7	122,9	175,1	69,5	76,1
Sanoat tovarlari	90,7	129,0	85,6	142,2	14,6	13,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	4,9	1,9	36,4 b.	38,3	0,8	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	13,9	20,3	81,8	145,6	2,2	2,1
Xizmatlar	1,6	1,3	63,4	83,9	0,3	0,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,9 % ni tashkil etib, ular asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (76,1 %), sanoat tovarlari (13,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,6 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-noyabr)

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	35 341,1	121,8
Sabzavotlar va mevalar	15 973,3	177,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17 348,0	87,2
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	2 007,7	-
Tirik hayvonlar	12,1	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	19 164,4	72,3
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	4 548,8	194,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	7 151,5	189,1
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	292,1	23,7 b.
Metall rudalari va metall parchalari	7 079,3	35,0
Tabiiy kauchuk	92,7	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	27 738,5	131,7
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	27 738,5	131,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 654,7	145,3
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	1 654,7	145,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	753 731,4	175,1
Noorganik kimyo moddalari	730 749,5	174,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	143,3	5,2 b.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	10 521,7	137,2
O'g'itlar	10 832,0	44,1 b.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	135,3	186,2
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	27,3	0,9
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1 322,3	2,3 b.


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	128 959,3	142,2
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	70 763,0	117,9
Rangli metallar	25 712,0	2,0 b.
Cho'yan va po'lat	229,0	162,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	31 433,8	179,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	680,7	2,0 b.
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	5,2	18,9
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	135,6	2 152,8 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1 879,8	38,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	680,3	173,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	181,9	5,0
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	859,9	96,5
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	150,4	211,8 b.
Metallarni qayta ishlash mashinalari	6,5	-
Boshqa transport uskunolari	0,8	-
Turli xil tayyor buyumlar	20 269,1	145,6
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	18 203,3	141,4
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 319,0	152,0
Poyabzal	472,7	79,2 b.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	269,7	167,7
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	0,3	2,1
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	4,1	3,0 b.
Xizmatlar	1 434,4	83,9
Moliyaviy xizmatlar	644,9	109,5
Transport xizmatlari	545,2	114,5
Safarlar	153,3	54,8

Navoiy tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlarga 139,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 14,1 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya, Rossiya, Hindiston, Turkiya, Qozog'iston, Daniya va Afg'oniston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 91,8 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'ri
	2023 y.	2024 y.		
Fransiya	377 323,7	684 029,3	181,3	1
Rossiya Federatsiyasi	59 008,6	76 039,5	128,9	2
Hindiston	40 228,8	46 448,8	115,5	3
Turkiya	32 459,6	29 293,8	90,2	4
Qozog'iston	17 303,0	26 299,2	152,0	5
Daniya	13 258,3	23 927,3	180,5	6
Afg'oniston	21 087,6	22 091,0	104,8	7
Qirg'iziston	9 543,9	13 652,4	143,0	8
AQSH	65,5	8 865,5	135,3 b.	9
Litva	8 410,7	7 624,9	90,7	10
Turkmaniston	3 633,7	7 546,2	2,1 b.	11
Xitoy	13 838,4	7 047,9	50,9	12
Tojikiston	5 971,2	6 534,9	109,4	13
Eron	3 792,7	6 353,7	167,5	14
Ukraina	420,4	3 377,8	8,0 b.	15
Pokiston	991,2	3 119,4	3,1 b.	16
Braziliya	0,0	2 819,4	0,0	17
Belarus	3 382,5	2 737,2	80,9	18
Misr	0,2	2 610,3	13051,3 b.	19
Ozarbajon	1 188,0	1 779,4	149,8	20

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI * (2024- yil yanvar-noyabr, ming AQSH doll.)



2024-yil yanvar-noyabr

2023-yil yanvar-noyabr

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 78,7 % bilan 778 977,5 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani 0,1 % bilan 519,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida 18 181,7 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 148,2 % ni tashkil etdi.


Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (51,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (23,9 %) hamda Afg'oniston (10,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 12 985,0 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 153,2 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 1,3 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-noyabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Pomidor</p> <p>752,7 ming AQSH dollari</p> <p>913,2 tonna</p> <p> 83,4 % ↓</p>	<p>Piyoz</p> <p>806,7 ming AQSH dollari</p> <p>5 105,5 tonna</p> <p> 2,8 b. ↑</p>	<p>Uzum</p> <p>2 874,4 ming AQSH dollari</p> <p>2 642,0 tonna</p> <p> 124,4 % ↑</p>	<p>Yong'oklar</p> <p>1 387,3 ming AQSH dollari</p> <p>1 160,3 tonna</p> <p> 57,5 % ↓</p>
<p>Karam</p> <p>150,8 ming AQSH dollari</p> <p>407,8 tonna</p> <p> 99,9 % ↓</p>	<p>Bodring</p> <p>58,0 ming AQSH dollari</p> <p>76,2 tonna</p> <p> 71,8 % ↓</p>	<p>Sitrus mevalar</p> <p>39,6 ming AQSH dollari</p> <p>27,4 tonna</p> <p> 149,2 % ↑</p>	<p>Loviya</p> <p>2 334,5 ming AQSH dollari</p> <p>436,4 tonna</p> <p> 2,6 b. ↑</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qozog'iston	13 886,1	6 689,5	51,5
 Xitoy Xalq Respublikasi	2 351,8	3 103,9	23,9
 Afg'oniston	286,5	1 346,9	10,4
 Pokiston	149,9	987,6	7,6
 Rossiya Federatsiyasi	317,8	221,1	1,7
 Turkmaniston	187,3	156,9	1,2
 Eron	59,8	80,0	0,6
 Litva	274,5	78,9	0,6
 Germaniya	136,9	65,6	0,5
 Boshqa davlatlar	531,1	254,6	2,0

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-noyabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 51,5 % ini), bu esa Xitoy Xalq Respublikasi eksport hajmiga nisbatan 2,2 barobarga ko'p.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-noyabr oylari yakuni bo'yicha 29 235,4 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 3,0 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 25,3 % ga ko'paydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (61,8 %), sintetik, jut tolalar (13,7 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 14 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)

100 %

29 235,4 (2023 y.: 23 335,1)

Jami

61,8 %

18 054,9 (12 699,8)

Kiyim-kechak Ip kalava

13,7 %

4 022,3 (1 703,5)

Sintetik, jut tolalar

7,2 %

2 109,5 (4 527,5)

Ipak mahsulotlari

4,7 %

1 368,7 (1 438,2)

Adyol, parda, gilam, yotoq choyshablari

12,6 %

3 680,0 (2 966,1)


Boshqa to'qimachilik mahsulotlari

Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 1 343,4 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,1 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 83,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (48,0 %), transport xizmatlari (40,6 %) va safarlar turizm xizmatlari (11,4 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 528,6 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 83,3 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (48,4 %), sanoat tovarlari (23,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (14,0 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



4,5 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,01 %

2. Ichimliklar va tamaki



1,7 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



0,3 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,4 %

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



14,0 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



23,1 %

7. Sanoat tovarlari



48,4 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



3,9 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,0 %

10. Boshqa tovarlar



3,7 %

11. Xizmatlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi 509,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 19,6 mln. AQSH dollariga etdi.

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	634,9	528,6	108,2	83,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28,9	23,5	197,7	81,4	4,5	4,5
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	-	-	0,01
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,6	9,0	100,4	71,3	2,0	1,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,6	1,3	27,2	51,8	0,4	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4,9	2,2	2,7 b.	46,0	0,8	0,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	84,5	74,3	92,6	87,9	13,3	14,0
Sanoat tovarlari	184,1	122,3	98,6	66,4	29,0	23,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	275,3	255,6	126,3	92,9	43,4	48,4
Turli xil tayyor buyumlar	22,1	20,7	59,9	93,6	3,5	3,9
Xizmatlar	19,9	19,6	132,0	98,1	3,1	3,7



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	23 506,4	81,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17 867,1	74,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	632,3	110,4
Sabzavotlar va mevalar	3 208,4	197,1
Hayvonlar uchun ozuqalar (oktabrdalanmagan donlardan tashqari)	691,7	141,7
Tirik hayvonlar	824,8	49,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	282,1	63,6
Ichimliklar va tamaki	76,9	-
Ichimliklar	76,9	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8 988,0	71,3
Probka va yog'och-taxtalar	1 984,3	100,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1 072,9	81,3
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	693,0	2,1 b.
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	4 819,6	55,1
Tabiiy kauchuk	44,6	74,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	194,1	48,0 b.
Metall rudalari va metall parchalari	179,5	104,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 348,3	51,8
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	780,6	30,6
Ko'mir, koks va briketlar	567,7	12,2 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2 241,7	46,0
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2 188,7	45,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	53,0	2,0 b.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	74 253,9	87,9
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2 375,4	59,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	27 556,0	89,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	23 354,9	99,3
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	418,9	15,0
Noorganik kimyo moddalari	10 493,3	100,2
Organik kimyo moddalari	2 901,5	62,2
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	6 206,1	84,4
O'g'itlar	4,2	4,0
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	943,6	120,0


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	122 296,4	66,4
Cho'yan va po'lat	25 875,7	2,6 b.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	21 568,8	2,8 b.
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	7 867,8	2,7 b.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	3 381,8	4,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	345,3	62,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 480,7	129,8
Rangli metallar	60 457,2	70,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	318,9	64,1
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,2	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	255 642,8	92,9
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	9 945,0	18,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	121 097,8	114,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	34 940,0	93,8
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	46 752,7	2,0 b.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	28 719,4	152,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	6 875,7	126,3
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	1 597,5	75,3
Metallarni qayta ishlash mashinalari	5 707,4	95,0
Boshqa transport uskunolari	7,3	-
Turli xil tayyor buyumlar	20 707,7	93,6
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	9 988,3	105,7
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	8 950,9	152,5
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 470,8	22,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	146,5	44,4
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	71,0	2,3 b.
Poyabzal	39,3	17,6 b.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	31,8	4,2 b.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	9,1	4,2 b.
Xizmatlar	19 555,4	98,1
Transport xizmatlari	11 278,2	101,2
Safarlar (turizm xizmatlari)	44,6	108,3
Boshqa xizmatlar	8 232,6	94,1

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-noyabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 30,2 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 78,0 % ni tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida Navoiy viloyati 61 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya, Yaponiya va AQSH) jami importning 84,9 % ini tashkil qiladi, bu 449,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2023 y.	2024 y.		
Xitoy	164 920,7	210 763,3	127,8	1
Rossiya Federatsiyasi	152 129,1	110 678,6	72,8	2
Qozog'iston	47 835,6	42 774,3	89,4	3
Turkiya	27 223,9	29 794,8	109,4	4
Germaniya	23 324,3	23 079,6	99,0	5
Yaponiya	42 799,4	21 293,8	49,8	6
AQSH	3 065,5	10 788,2	3,5 b.	7
Buyuk Britaniya	9 728,3	9 540,9	98,1	8
Koreya Respublikasi	20 426,3	8 568,8	42,0	9
Eron	5 229,9	7 038,5	134,6	10
Italiya	1 373,7	5 671,1	4,1 b.	11
Chexiya	5 508,4	4 966,4	90,2	12
Hindiston	11 045,3	4 905,4	44,4	13
Finlyandiya	2 811,9	3 207,9	114,1	14
Litva	15 171,5	3 095,0	20,4	15
Belgiya	2 338,8	2 939,4	125,7	16
Turkmaniston	1 184,8	2 676,7	2,3 b.	17
Fransiya	4 712,3	2 427,5	51,5	18
Shveysariya	1 449,3	2 363,3	163,1	19
Polsha	4 627,8	1 847,4	39,9	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORT HAJMI (2024- yil yanvar-noyabr, ming AQSH doll.)




Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani 45,3 % bilan 239 260,7 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri 0,1 % bilan 727,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr, ming AQSH dollarida)




2024- yil yanvar-noyabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 19 555,4 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 3,7 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (57,7 %), safarlar (turizm xizmatlari) (0,2 %) va boshqa xizmatlar (42,1 %) dan iborat bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 122 296,4 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 66,4 % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 23,1 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr)

74 143,3 ming AQSH
doll. *Ulushi – 60,6 %*



Rossiya

16 052,8 ming AQSH
doll. *Ulushi – 13,1 %*



Qozog'iston

15 913,7 ming AQSH
doll. *Ulushi – 13,0 %*



XXR

3 953,3 ming AQSH
doll. *Ulushi – 3,2 %*



Turkiya

2 307,1 ming AQSH
doll. *Ulushi – 1,9 %*



Yaponiya



2024- yil yanvar-noyabr oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmining Navoiy viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Rossiya 74 143,3 ming AQSH dollari (60,6 %), Qozog'iston 16 052,8 ming AQSH dollari (13,1 %) va Xitoy Xalq Respublikasi 15 913,7 ming AQSH dollari (13,0 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.